

**QISHLOQ XO‘JALIGI KARTA VA PLANLARINI YANGILASHDA
KOSMIK SURATLARNING AHAMIYATI
(Qamashi tumani G'ishtli massivi misolida)**

Jumanov Bekzod Norboyevich

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi karta va planlarini yangilashda kosmik suratlarning ahamiyati va yerlaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishda, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yer, plan, karta, masshtab, tuproq ball-bonitet, ayerokosmik suratlar.


Respublikamizning so‘ngi yillarda qishloq xo‘jaligi sohalarida ilm – fan yutuqlaridan keng foydalanishga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda yer resurslarini boshqarish sohasida ham zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, ish jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ayerokosmik suratlar paydo bo‘lgunga qadar ular an'anaviy uslubdan, ya'ni yer yuzasini turli asboblardan bilan o‘lchab hisob kitob qilishgan. Topografik xaritaning sifati va ishonchliligi uning masshtabiga, aniqligiga, zamonaviyligiga va sifatli nashr etilishiga bog‘liqdir. Ammo har doim ham yuqoridagi omillar orasidagi bog‘likliklar bir biriga to‘g‘ri kelavermaydi. Xaritaning masshtabi qancha yirik va mazmuni aniq bo‘lsa u shuncha tez eskiradi. Topografik xaritalarni katta hudud uchun an'anaviy usullarda yangilashga esa ko‘p vaqt, og‘ir mehnat va moddiy harajat sarf bo‘ladi. Bu holda kosmik suratlar yaqindan yordam bera oladi. Sun'iy yo‘ldoshdan olingan yerning surati kam vaqt sarflab kerakli joyning zamonaviy tasvirini bera oladi.

MapInfo dasturi yordamida esa, joy to‘g‘risida ma'lumotlarni uning manzili va nomi orqali topish mumkin. Qo‘shimcha ravishda ko‘chalarning kesishuvini, chegarasini, interaktiv yoki avtomatik ravishda geokodlashni amalga oshirish va ma'lumotlar bazasidan obektlarni kartaga ko‘chirish mumkin. Ma'lumotlarni tizimda tasvirlash

jadval, karta, diagramma va matn ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Tizim orqali maxsus geografik tahlil va grafik tahrir qilish mumkin.

Yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishda, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta‘minlashda har xil kartografik ma‘lumotlardan foydalaniladi.



1-rasm. Qamashi tumani G'ishtli massivining Google Earth Pro dasturidan olingan tasviri.

O‘zbekiston Respublikasi kadastr hujjatlardan biri bu kadastr plani va xaritalari hisoblanadi. Kadastr xarita va planlari umumdavlat kartalari bo‘lib xalq xo‘jaligi ehtiyojini qondirish, davlat kadastr tizimini yuritish va kadastr ma‘lumotlarini ma‘lum geografik makonga bog‘lab muayyan zamonda ko‘rsatish uchun xizmat qiladilar.

Masalan, fermer xo‘jaliklarining plani, so‘nggi ma‘lumotlar asosida yaratilishi navbatchi xaritalardan foydalanilib tuzilishi va yangilanib borilishi kerak. Ma‘lumki fermer xo‘jaligining planida topografik asos elementlaridan relef, aholi joylari, yo‘l va irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari, chegaralar, yer turlari va ularning ball-boniteti tasvirlanadi.


Fermer xo‘jaligi uchastkasining plani yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi yer kadastriga doir xujjatlarning ajralmas qismidir. Yer uchastkasi bu yer fondining

qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimiga hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro‘yxatiga olish xujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlarga ega bo‘lgan qismidir.

Yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettirish uchun an‘anaviy tarzda tuziladigan xarita va planlarni yaratishga ko‘proq vaqt ketadi. Ma‘lumki, Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklarining yer miqdori, xolati va yerdan foydalanish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 1:10000 masshtabdagi planlarda ko‘rsatiladi (2-rasm). Ammo fermer xo‘jaliklari yerlarining tabiiy-iqtisodiy holati to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlar 1:10000 masshtabli yer uchastkasining planida to‘liq o‘z aksini topishi qiyin. Fermer xo‘jaliklarining qaysi viloyatda joylashganligiga, ixtisosligiga, yo‘nalishiga qarab uning tassarufida 1 gektardan 200-300 gektargacha yer maydoni bo‘lishi mumkin. Har bir fermer xo‘jaligi alohida xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt bo‘lib, 1:10000 masshtabdagi xo‘jalik planida uncha katta bo‘lmagan yer maydoniga ega bo‘lsa juda kichik bo‘lib tasvirlanadi. Masalan, 1 gektar yeri bo‘lgan fermer xo‘jaligining maydoni 1:10000 masshtabli planda 1 sm² maydonda tasvirlanadi. Bu esa yer hisobotiga qo‘yiladigan talablardan biri ko‘rgazmali, sifat jihatdan aniq, haqqoniy bo‘lishini ta‘minlay olmaydi. Bunda faqat fermer xo‘jaligining chegarasi va joylashgan o‘rni raqamlarda planda ko‘rsatiladi.



2-rasm. Qamashi tumani G'ishtli massivining qishloq xo'jaligi kartasi.



3-rasm. Qamashi tumani G'ishtli massivining qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashuv kartasi.

Yer hisoboti, qiymati va sifati haqidagi ma'lumotlar fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanganligi uchun olinadigan soliqqa asos bo'ladi. Soliqlar yer uchastkalar sifatiga (tuproq ball-bonitetiga) joylashgan o'rniga, suv bilan ta'minlanganligiga qarab koeffitsientlar orqali aniqlanadi. Juda kichik hududni egallagan fermer xo'jaliklarining 1:10000 masshtabli planida 1 sm kvadrat maydonda tuproq ball-boniteti, ekin turlari va ularning joylashishi (3-rasm), irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarining joylashishini aks ettirish va shu bilan bir qatorda o'quvchanligini oshirish ishlarini osonlashtiradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, geoaxborot tizimlarida yaratilgan elektron raqamli xaritalardan foydalangan holda yer tuzish va yer kadastrini ishlarini bajarish vaqt, mehnat va harajatlar sarfini kamaytiradi. Shu bilan birga bajarilgan ishlarning sifatini va aniqlik darajasini oshiradi, yer kadastrini axborotlaridan foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa yer tuzish va yer kadastrini sohasining rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. Mirzaliyev, I Musayev. Kartografiya. Toshkent: "ILM ZIYO", 2007.
2. Safarov E, Musayev I, Abduraximov X. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. Toshkent: TIMI, 2008.-160 b.